

**JADID MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA HUSUSIDAGI FIKRLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6669430>

Aliyev Abdulaziz

Annotatsiya: XIX asrning ohiri XX asrning boshlarida Turkistondagi vaziyat, Jadidchilik harakatining vujudga kelishidagi sabablar, ma'rifatparvarlarning ta'lim-tarbiya yuzasidan bildirgan fikrlari.

Kalit so'zlar: Ma'rifatchilik g'oyalari, ma'rifatchilar, jadicilik, jadidlar, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud ahloq" asari Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" kitob.

Barchamizga tarixdan ma'lumki, XX asr o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan bir davr bo'ldi. Bu davrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiyinlashtirib yubordi. Turkiston xalqlarining nechi asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu davr boshida ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Insonlar fikridagi yangilanishlar, ilmfan texnika yutuqlarning kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani barobarida ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalarining tobora qashshoqlashuvi aynan shu davrda turkistonliklarning hayot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Ijtimoiy va ma'naviy qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik, ma'rifatsizlik, tarbiyasizlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va ertangi kundan umidi bor ma'rifatli va ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi, harakatga keltirmasligi mumkin emasdi. XIX asrning ohiri XX asrning boshlarida faqatgina Turkistonda emas, balki dunyodagi boshqa mustamlakalarda ham milliy uyg'onish harakatlari boshlangan.

Ana shunday, ma'rifatli ziyolilarmiz ijtimoiy adolatsizlikni, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lganlar. Ularning fikricha, millatning nochor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun dastavval, xalqqa bilim berish, tarbiya berish kerak deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo'lmasligini tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, rivojlanish jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi



ayon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni, tarbiyani takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalani bo'lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa Turkistonda XIX asrning 80-yillarida shakllana boshlagan ma'rifatchilik qarashlari XX asrning boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi."Jadid" so'zi arab tilida "yangi" degan ma'noni berib, taraqqiyotga, ertangi kunga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflatdan va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar.

Mustamlakachilik siyosati tufayli o'lkaga kirib kelayotgan va ayniqsa yosh avlodning axloqiga, tarbiyasiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ichkilikbozlik, qimorbozlik, maishiy buzuqlik kabi qabih odatlar jadid mutafakkirlarini qattiq tashvishga sola boshladi. Ilmsiz, nodon yoshlar usti yaltiroq yaramas ishlarga tez beriladilar. Buning natijasida vujudga kelayotgan fojiali voqealarning mudhish oqibatlarini yoshlar, ayniqsa, ularning ota-onalari umuman olganda, butun xalq ko'z ongida namoyish qilish kerakligi kun mavzusiga aylanib ulgurgan edi. Sharq xalqlarida qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelingan. Farzand tarbiyasiga chaqaloning tug'ilgan paytidan, balki undan ham oldinroq ahamiyat berish lozimligi haqida qator rivoyatlar va ibratli hikoyalar borki, ularning barchasida insonning kamoloti va kelajak poydevori yoshlikda olingan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi haqida so'z yuritiladi. Jadid adibimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo halokat masalasidir" degan so'zlari- millat taqdiri, ertangi kunimiz yoshlarimiz qo'lida ekanligini uqtiradi. Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtayi nazaridan yondashishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning "Qarolar falsafasi" risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy-falsafiylik, ilmiy-nazariy xulosalar bilan yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'proq ta'rif berish, ularni sharhlash yo'li bilan yondashiladi.

Abdulla Avloniy, avvalo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar- to'ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar- o'zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishlari kerak bo'lgan, mudarrislar esa darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini, axloqini usuli jadid tarafdorlari ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga



intilayotgan ziyolilar qo'lga olishi kerak. Abdulla Avloniy Rossiya hukumati u yer bu yerda yangicha maktablar ochgani shunchaki jahon hamjamiyatini chalg'itish ekanini, ochiq bo'lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o'tadi: "...hukumat hammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmoq lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatomiz o'gay bo'lsa ham, har yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni o'qutur." Avloniy ana shu "o'gay tarbiya" dan ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va o'z davrini "Tarbiyaning zamoni- tarbiyaning ayni vaqti" deb ataydi.

Avloniy tarbiyani qadimgilar va o'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlari an'analariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida e'tibor berib uni "insonlarga eng muhim, ziyoda, sharaf, baland daraja berguvchi" tarbiya deb baholaydi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "yomon xulqlar" ga - illatlar tahliliga katta o'rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to'siq bo'ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: "Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idir". Abdulla Avloniy g'azab, shahvat, hasad, hizb, ta'ma, axloqsizlik, tarbiyasizlik kabi illatlarga atroflicha to'htaladi. Shuni e'tiborga molikki, Abdulla Avloniy axloqshunoslik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki ham falsafiy, ham badiiy jihatdan to'liq talqinini beradi. Hususan, u muayyan axloqshunoslik tushunchasi yoki axloqiy me'yorlarning sodda, lo'nda ta'rifini berar ekan, ba'zi hollarda Suqrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sinolarning fikrini isbot tarzida keltirsa, goho ularni nazmiy tizmalar bilan o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasi XX asrning Turkiston axloqiy tafakkurida eng salmoqli o'rinni egallaydigan axloq muammolarini hal etishga bag'ishlangan yirik asardir. Abdulla Avloniy aytganidak, "Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasini va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binonarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgarturmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Turkiston ma'rifatchilar axloqshunosligida tom ma'nodagi millat qahramoni Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" kitobi alohida e'tiborga loyiqdir. Asarda Abdurauf Fitrat Turkistonni ozod, erkin ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lishi kerak. Fitrat yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila farzandlarigina millatni yuksaklarga ko'tara oladi: "Bu dunyo kurash maydonidir". Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-asalahalarimiz



sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat, na rohat bor..." –deydi Fitrat.

Kitobning birinchi qismi vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib me'yoriy dasturilamal tarzida tartib berilgan bo'lsa, ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etib: jism tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaga bo'lgan. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy komil inson kamol topadi deb hisoblaydi. Fitrat ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim etadi. Farzandlarni irodali, kuchli, tarbiyali qilib tarbiyalashga da'vat etadi: iroda tarbiyasini to'rt bandedan iborat bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi. "Ota-onalarning haq-huquqlari" bobida ham farzand tarbiyasidagi erkinlik darajasi haqida fikr yuritadi. Umuman olganda, Fitratning bu kitobida amaliy axloq bilan axloq nazariyasi muammolari uyg'unlashib ketgan.

XIX asr ohiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmiy, har jihatdan yuksak axloq-odob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo'lida ekani ayon bo'lib qoldi. Shu bois ilg'or, ziyoli ayollar na faqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy-tarbiyaviy risolalar yozish yo'li bilan ham bo'lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo'shadilar. Shu jihatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898-1899-yillarda ikki marta nashr etilgan "Muosharat odobi" (Turmush odobi) asari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. "Agar hotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shakshubhasiz biladi. Bolalarni esa go'zal tarbiya qiladi, er bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi", deydi risola muallifi. Axloqshunos olimi o'z risolasi haqida tarbiyaning turli tomonlarini birvarakayiga o'z ichiga oladi, deydi. U o'n ikkinchi saboqda tarbiyani "ilmiy axloqning tani, negizi" deb ta'riflaydi.

Jadid ma'rifatparvarlari orasida yana bir alloma Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining badiiy ifodasi sifatida "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli dramasi yaratdi. Behbudiy dramada otalar va bolalarning muammosi-o'g'il tarbiyasida ota-onaning o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratadi. E'tibor bering, dramada ota kattagina boy, ammo bu boylik tarbiya ko'rmagan, o'qimagan bolani ham, otani ham fojia girdobiga tortib ketadi. Oila va maktab tarbiyasi birgalikda, uzviy olib borilgandagina o'z



oldiga qo'ugan ulkan vazifani bajara oladi, degan fikr asarni harakatga keltiruvchi kuchdir. Ota tarbiya ko'rmagan dunyo voqealaridan uzilib qolgan, hattoki muomala madaniyatidan ham bexabar, uning domla va ziyoli bilan bo'lgan muomalasi Toshmurodning otasi bilan bo'lgan muomalasiga o'xshab ketadi, ya'ni otaning tarbiyasizligi, johilligi o'g'lida ham nomoyon bo'lib o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. S.Ayniy. "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", Moskva, 1926.
2. Cho'lpon. "Asarlar" 1-2-jildlar, Toshkent, 1994
3. O'zbekiston tarixi: yangi nigoj .Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998.
4. Jadidchilik: yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy "Tanlangan asarlar", Toshkent 1999
6. Abdurauf Fitrat "Tanlangan asarlar" 1-2-jildlar, Toshkent, 2000
7. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent, 2001
8. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakchiligi davrida), Toshkent, 2000.
9. P.Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch, 2000
10. M.Abdurashidxonov, "Xotiralarim", Toshkent, 2001
11. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.
12. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent, 2001-2005
13. Ahmedov, Sirojiddinov, Rajabov. "Jadidchilik". O'zME. Toshkent